

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

3

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2025



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Abdurahmonova M. Urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar	3
Jumaniyazov M. “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb” asarida fe‘llar va yuklamalarning tushum kelishigi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlari	11
Таджихуҷаева Ф. Семантический анализ персидского соматизма جان <i>jān</i> «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои.....	20
Иванова А. Невербальные компоненты коммуникации в китайском языке: лингвокультурологический аспект.....	28
Hou Yanli., Zhu Xingfei. Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People	37
Qodirova D. Vyetnam tilidagi “cái” [<i>kai</i>] va “con” [<i>kon</i>] hisob so‘zlarining qiyosiy tahlili.....	46
Davlatov Z. Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usulixususida	55

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Madraimov A., Eshmurodov B. Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari	61
Nayimov O. Ibn Khaldun and Power Dynamics: A Geopolitical Relevance of the Muqaddimah.....	69
Egamberdiyev A. Davriy matbuot sahifalarida Sharqiy Turkistondagi siyosiy voqealarga doir masalalarning yoritilishi (XIX asr oxirlari)	78
Elimov L. G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida Amir Temur davlatining vujudga kelishi haqida	92

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Kasimov M. Pokiston-Hindiston-Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta‘siri.....	99
Bo‘ronov S. Qo‘shqepa kanalining markaziy osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta‘siri	109
Turdiyeva D. Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today	114
Qalandarov O‘. Islom inqilobi va Eron tashqi siyosatining yangi paradigmalarining shakllanishi	123



DAVRIY MATBUOT SAHIFALARIDA SHARQIY TURKISTONDAGI SIYOSIY VOQEALARGA DOIR MASALALARNING YORITILISHI (XIX ASR OXIRLARI)

ABDUVAHOB EGAMBERDIYEV

tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xitoyning G'arbiy viloyatlarida yuz bergan dunganlar qo'zg'oloni, Yoqubbek boshchiligidagi mustaqil davlat tuzilishi, va Rossiya imperiyasi bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi geopolitik raqobat jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. A.K. Geynsning ma'ruzalari, H. Vamberining maqolalari, rus harbiy ekspeditsiyalari (baron Kaulbars, Reyntal), va turli matbuot materiallari (jumladan, Turkestanskije vedomosti, Golos, Novosti) orqali Xitoyning ichki beqarorligi, Rossiyaning strategik manfaatlari va G'ulja masalasining xalqaro diplomatik muammoga aylanishi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, savdo yo'llarining ahamiyati, islohot harakatlari, milliy suverenitet uchun kurash va qo'zg'olonlarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yoritilgan. Xitoy harbiy zaifligi, Rossiyaning iqtisodiy-siyosiy ekspansiyasi va Yevropa kuchlarining diplomatik xatolari orqali mintaqadagi kuchlar muvozanatining o'zgarishi ko'rsatilgan.

Kalit so'z va iboralar: Dunganlar qo'zg'oloni, G'arbiy Xitoy, Yoqubbek davlati, Sharqiy Turkiston, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, Geosiyosiy raqobat, G'ulja masalasi, Rossiya-Xitoy munosabatlari, Qashg'ar diplomatiyasi, Baron Kaulbars ekspeditsiyasi, H. Vamberi maqolalari, XIX asr Osiyo siyosati, Turkestanskije vedomosti, Xitoydagi milliy qo'zg'olonlar, Xitoy musulmonlari (dunganlar), Savdo yo'llari va strategik hududlar, Rossiya-Britaniya siyosiy qarama-qarshiligi, Ili shartnomasi, Matbuotdagi siyosiy tahlil.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению дунганского восстания, произошедшего во второй половине XIX — начале XX века в западных провинциях Китая, а также формированию независимого государства под руководством Якуб-бека и геополитическому соперничеству между Британской империей и Российской империей. На основе докладов А.К. Гейнса, статей А. Вамбери, российских военных экспедиций (барон Каульбарс, Рейнталь) и различных печатных источников (в том числе «Туркестанские ведомости», «Голос», «Новости») анализируются внутренняя нестабильность Китая, стратегические интересы России и превращение Гульджинского вопроса в международную дипломатическую проблему. Особое внимание уделено значению торговых путей, реформаторским движениям, борьбе за национальный суверенитет и социально-экономическим корням восстаний. Через призму военной слабости Китая, политико-экономической экспансии России и дипломатических ошибок европейских держав рассматриваются изменения в балансе сил в регионе.

Ключевые слова: Дунганское восстание, Западный Китай, государство Якуб-бека, Восточный Туркестан, Российская империя, Великобритания,



геополитическое соперничество, Гульджинский вопрос, российско-китайские отношения, дипломатия Кашгара, экспедиция барона Каульбарса, статьи А. Вамбери, азиатская политика XIX века, Туркестанские ведомости, народные восстания в Китае, китайские мусульмане (дунгане), торговые пути и стратегические территории, российско-британское политическое противостояние, Илийский договор, политический анализ в прессе.

Abstract. This article explores the Dungan uprising that occurred in the western provinces of China during the late 19th and early 20th centuries, the formation of an independent state under the leadership of Yaqub Beg, and the geopolitical rivalry between the Russian and British Empires. Drawing on the lectures of A.K. Geyns, the writings of H. Vambery, Russian military expeditions (led by Baron Kaulbars and Reinthal), and various press sources (including *Turkestanskie Vedomosti*, *Golos*, *Novosti*), the article analyzes China's internal instability, Russia's strategic interests, and the transformation of the Gulja issue into an international diplomatic dispute. It further highlights the importance of trade routes, reform movements, the struggle for national sovereignty, and the socio-economic roots of the uprisings. The study also illustrates the shifting regional balance of power through China's military weakness, Russian economic-political expansion, and diplomatic missteps by European powers.

Keywords: Dungan uprising, Western China, Yaqub Beg's state, Eastern Turkestan, Russian Empire, Great Britain, geopolitical rivalry, Gulja question, Russo-Chinese relations, Kashgar diplomacy, Baron Kaulbars expedition, H. Vambery's writings, 19th-century Asian politics, *Turkestanskie Vedomosti*, national uprisings in China, Chinese Muslims (Dungans), trade routes and strategic territories, Russo-British political confrontation, Ili Treaty, political analysis in the press.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston va G'arbiy Xitoy hududlari geosiyosiy raqobat, ichki siyosiy beqarorlik va milliy ozodlik harakatlari markaziga aylandi. Ayniqsa, dunganlar qo'zg'oloni, Yoqubbek hukmronligi, Rossiya va Buyuk Britaniyaning mintaqadagi manfaatlar to'qnashuvi, Xitoyning ichki zaifliklari va islohotlarga bo'lgan urinishlari tarixiy jarayonlarning murakkabligidan dalolat beradi.

Matbuot materiallari, rasmiy ma'ruzalar, sayohatnomalar va diplomatik yozishmalar asosida shakllangan ushbu tadqiqot o'zida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G'arbiy Xitoydagi dunganlar qo'zg'oloni va uning aks-sadosi, Rossiya imperiyasi manfaatlari, Xitoyning ichki siyosiy holati, xalqaro kuchlar o'rtasidagi diplomatik muvozanat, va ayniqsa, G'ulja masalasi atrofidagi siyosiy munosabatlarni chuqur tahlil qiladi.

A.K. Geyns, P.P. Matveev, Reyntal, H. Vamberi va boshqa mutaxassislarning kuzatuvlari, “*Turkestanskie vedomosti*”, “*Golos*”, “*Russkiy invalid*”, “*Novosti*” singari nashrlarda chop etilgan materiallar orqali o'sha davr voqealari keng ko'lamda yoritilgan. Shuningdek, Yoqubbek va Qashg'arning siyosiy, iqtisodiy



ahamiyati, Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasidagi diplomatik raqobat, savdo manfaatlari va mintaqaviy xavfsizlik masalalari tadqiqot markazida turadi.

Mazkur maqola ushbu murakkab tarixiy davrni manbaalarga asoslangan holda tahlil qilish, G'arbiy Xitoydagi qo'zg'olonlar, ularning ichki va tashqi sabablari, va Rossiyaning mintaqadagi strategik siyosatini qayta ko'rib chiqishga xizmat qiladi.

1866 yil 16 aprelda Rossiya geografiya jamiyatida A.K.Geyns Xitoyda dunganlar qo'zg'oloni haqida ma'ruza o'qiydi. Ma'ruzadan keyin Xitoyda uzoq vaqt yashagan va bu mamlakat bilimdoni hisoblangan Skachkov ma'ruzachini ba'zi ma'lumotlarni noto'ri berganligi va ushbu qo'zg'olonga ortiqcha baho berganligini ta'kidlaydi. Undan so'ng Xitoy va buddizm tarixi bo'yicha kitoblar muallifi mashhur professor Vasilev so'zga chiqib, ma'ruzachining dunganlar qo'zg'oloni diniy xarakterga ega ekanligi to'g'risidagi fikriga qo'shiladi va uni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur ma'ruza A.K.Geyns dastlab "Izvestiya imperatorskogo russkogo geograficheskogo obshchestva" sahifalarida nashr qilingan, uning roziligi bilan keyinchalik "Voennyi sbornik"da chop etiladi¹.

Muallif 4 oy mobaynida Semipalatinsk oblastida maxsus komissiya tarkibida Cho'l viloyatlariga oid qonun hujjatlari ishlab chiqish uchun jo'natiladi, bu guruhga Ichki ishlar vazirligi vakili F.K.Girs² raislik qiladi. A.K.Geyns fursatdan foydalanib, G'arbiy Xitoydagi dunganlar qo'zg'olonidan yaxshi xabardor bo'lgan kishilar bilan suhbatlashadi. Shunday kishilardan biri Katta O'rda boshlig'i sulton Tezek Xitoyning eng uzoq joylari bilan bevosita aloqada bo'lgan, u 2 kun A.K.Geyns bilan suhbatlashadi. Bundan tashqari, Qashg'ardan kelgan voqealardan yaxshi xabardor bo'lgan bir savdogar, shuningdek, Osiyo tarixini yaxshi bilgan va jarayonni doimo kuzatib borgan Verniylik oqsoqol Muhammad Saidaxmad ham A.K.Geyns bilan ko'p marotaba hamsuhbat bo'lgan. Bundan tashqari, qo'zg'olon vaqtida qochib kelgan qozoqlar va qolmiqlar ham bu haqda gapirib bergan. Bu suhbatlardan keyin Semipalatinsk oblasti harbiy gubernatori mahkamasidagi dunganlar qo'zg'oloni haqidagi hujjatlar bilan va Sankt

¹ Гейнс А.К. О восстании мусульманского населения или дунганей в Западном Китае // Туркестанский сборник. № 5. – С.63-86.

² Гирс Фёдор Карлович (1824 йил 4 (16) январ - 1891 йил 23 январ (4 феврал)) - Россия империясининг давлат арбоби ва ҳақиқий махфий маслаҳатчи. 1865-йилда у қирғизлар ҳаётини ўрганиш ва даштларни бошқаришни ташкил этиш тамойилларини ўрганиш бўйича комиссия раиси этиб тайинланди. Комиссия томонидан ишлаб чиқилган тамойиллар Туркистон ўлкаси ва дашт ўлкаларини бошқариш тўғрисидаги Низомга асос бўлди. 1867 йил 15 июлда у махфий маслаҳатчи, 1880 йил 30 августда эса ҳақиқий махфий маслаҳатчи лавозимига кўтарилди. 1882 йилда Туркистонни тафтиш этиш комиссиясига расилик қилади.



Peterburgga qaytgandan so'ng Ch.Valixanovning Qashg'arga sayohatnomasi bilan tanishadi¹.

A.K.Geynsning mazkur maqolasida XIX asrda Xitoyning G'arbiy qismlarida dunganlar (Xitoy musulmonlari) tomonidan ko'tarilgan isyon haqida batafsil ma'lumot beriladi. Asosiy e'tibor isyonning sabablari, tartibi va ta'sirlariga qaratiladi, qo'zg'olon yetakchilari hamda ularning ijtimoiy va harbiy hayotining asosiy xususiyatlari tasvirlangan².

Qo'zg'olonchilar yaxshi uyushgan bo'lib, masjidlar jamoasi orqali mablag' to'plangan, qurol-aslahalar yetkazib berilgan, tartib-intizom ustuvorligi ta'minlangan. Qo'zg'olonning ustun jihatlari qatorida uning zaif nuqtalari ham borligi ko'rsatilgan, ya'ni bo'linmalarni markazlashtirilgan holda boshqarish qiyinligi va ichki siyosiy ixtiloflar qo'zg'olonne barqarorligidan mahrum qilgan.

1872 yilning 12 fevralida Sankt-Peterburgda nashr etilgan mazkur maqola rus jamoatchiligi uchun bir qator muhim masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan. Unda o'tgan yili rus armiyasi tomonidan egallangan G'ulja hududini Xitoy hukumatiga qaytarish ehtimoli haqidagi mish-mishlar aks etgan³.

Maqolada Rossiyaning O'rta Osiyoga qilgan harakatlari nafaqat rus xalqi uchun, balki insoniyat uchun ham foydalidir, deb ta'kidlangan. Hududning tabiiy boyliklaridan to'liq foydalanish va madaniy taraqqiyotga erishish uchun Rossiyaning ishtiroki muhim, deb hisoblangan. Xitoyning ushbu hududlardagi ko'p yillik nazoratiga qaramay, ular iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muvaffaqiyatga erisha olmaganligi ta'kidlangan.

Maqola muallifi, shuningdek, Rossiyaning O'rta Osiyodagi savdo imkoniyatlari, amaldagi siyosiy vaziyat va Xitoyning mintaqadagi mustahkamligini tahlil qilishga harakat qiladi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy zaifliklari hamda ichki muammolari hududdagi pozitsiyasini qiyinlashtirayotgani qayd etilgan.

Shuningdek, Rossiyaning O'rta Osiyodagi hokimiyatini mustahkamlash, savdo yo'llarini rivojlantirish hamda Xitoyga o'xshash qo'shnilar tomonidan paydo bo'ladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish zarurligi aytiladi. Ushbu hududni ushlab turish Rossiya mahsulotlarining Osiyo bozorlaridagi xaridorlarini ko'paytirish, Hindiston va Xitoy kabi davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish hamda chegaralarni mustahkamlash imkoniyatini berishga alohida urg'u beriladi.

Maqolada Xitoyning harbiy salohiyatiga ortiqcha baho berilayotgani aslida esa Xitoyda 20 yil davom etgan xalq qo'zg'olonlari davrida aholining qariyb beshdan to'rt qismi qirilib ketganligi va qo'shin soni kamayib ketganligi, davlat xazinasi

¹ Гейнс А.К. О восстании мусульманского населения или дунганей в Западном Китае // Туркестанский сборник. № 5. – С. 63-64.

² O'sha manba – С. 68-69.

³ С.-Петербург. 12 февраля 1872 г. // Биржевые ведомости. – 1872. – № 43.



bo'shab qolganligi ta'kidlanadi. Buning ustiga epidemiyalar tarqalishi, tabiiy ofatlar ro'y berishi ahvolni yanada og'irlashtirgan bir holatda Xitoy ularga foyda keltirmagan vassal yerlarni zabt etishni muhim deb bilmasa kerak degan fikr bildiriladi. G'uljani egallab, u yerni qo'l ostida tutib turish uchun manjurlar va mongollardan 20 ming qo'shin saqlagan holda ham vaziyatni nazorat qila olmaganligi va buni faqat Rossiya yordamida qila olishiga katta e'tibor beradi¹.

Maqolada siyosiy sherikchilik va hududiy manfaatlarni himoya qilish borasida Rossiyaga kuchliroq va qat'iyroq yondashuvlar zarurligi taklif qilingan. Xitoy Jung'oriya va Turkistonga egalik qilgan vaqtida Chuguchak va G'uljadan tashqari Qashg'arni ham rus savdosi uchun ochib berishga va'da bergan bo'lsa-da, u yerdagi siyosiy jarayonlardan so'ng Rossiya bu ikki savdo punktidan ham ayrilib qoladi. Maqola muallifi shuning uchun G'uljaga egalik qilish ma'qulmi yoki u yerda mehmon bo'lish yaxshimi degan savol qo'yadi. Bu savolga Xitoy G'uljani qo'lga kiritishi bilan u yerga Rossiya umuman kiritilmaydi, deb javob beradi.

Rossiyaning G'ulja hududini Xitoyga qaytarishi milliy sha'nu sharafiga putur yetkazishi va O'rta Osiyodagi siyosiy ta'sirini kamaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shunday ekan, Rossiya o'z manfaatlarini himoya qilishi va mintaqada o'z mavqeini kuchaytirishga qaratilgan siyosat yuritishi shart, degan fikr bildiriladi. Rossiyaning Xitoyga yonbosishi hech bir ijobiy natijalar bermaganligi, jumladan, rus savdogarlariga Manjuriyada savdo qilishga ruxsat berilmaganligi, Mongoliyada faqat Urguda savdo qilishga ruxsat berilganligi hamda Xitoyda faqat yevropaliklar ham savdo qiladigan joylarda, ya'ni rus savdogarlari kirishi qiyin bo'lgan joylarda savdo qilishga ruxsat berilganligi haqida xabar qilinadi.

Yuqoridagi fikrlarga hamohang fikrlar "Turkestanskije vedomosti" gazetasida e'lon qilingan maqolada ham aytiladi, jumladan, agar G'ulja Xitoyga qaytarilsa, geosiyosiy vaziyatga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Mahalliy musulmon jamoalari va Xitoy ma'murlari o'rtasida yana to'qnashuvlar yuzaga kelishi xavfi ta'kidlanib, bu yangi qon to'kilishi va tashqi kuchlarning aralashuviga olib kelishi mumkinligi aytiladi. Muallif xitoyliklar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi haqida tarixiy misollar keltirib, G'uljani topshirish Xitoy bilan savdo aloqalarini yaxshilashi va Rossiyaga foyda keltirishiga shubha bildiradi².

Rossiya imperiyasi va qo'shni davlatlarning chegara hududlarida yuz bergan turli mojaro va to'qnashuvlar haqidagi ma'lumotlar, savdogarlar va ko'chmanchilarga qilingan hujumlar va talonchilik voqealari, shuningdek, Rossiya hukumati tomonidan o'z fuqarolarini himoya qilish uchun ko'rilgan javob

¹ O'sha manba.

² Н.М. Кулжа масаласи бўйича // Туркестанские ведомости. – 1879. – № 23.



choralari “Turkestanskije vedomosti” gazetasida 1879 yilda batafsil tasvirlanadi¹. Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatga ta’sir ko’rsatgan omillar, jumladan, xitoyliklarning Rossiya nazorati ostidagi hududlarga ko’chishi va Xitoy hukumatining o’z fuqarolarini qaytarib olishga urinishlari yoritiladi.

“Augsburg umumiy gazeta”sida mashhur sayyoh Herman Vamberining “Sharqiy Turkistonda ruslarning siyosiy yutuqlari” nomli maqolasi chop etilib, u “Birjevyje vedomosti” gazetasida ko’chirib bosiladi, unda Angliya va Rossiyaning XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda o’z ta’sirini o’rnatishga qaratilgan harakatlari tahlil qilingan. Britaniya manfaatlari bilan qarama-qarshilik fonida Rossiya diplomatiyasining O’rta Osiyodagi siyosati ijobiy baholanadi². Shuningdek, muallif Xitoy musulmonlarining g’azabi, Xitoy provinsiyalaridagi qo’zg’olon va buning natijasida Osiyodagi diplomatik harakatga e’tibor qaratadi.

Rossiya va Angliyaning Sharqiy Turkiston hukmdori Yoqubbek bilan o’zaro munosabatlaridagi turlicha munosabatlarga asosiy e’tibor qaratilgan. Ta’kidlanishicha, inglizlar ko’p xatolarga yo’l qo’ygan, ya’ni diplomatik vakolatxonalarning yetarli darajada tayyorlanmagan va bu mintaqada ittifoqni mustahkamlash imkoniyatlarini e’tiborsiz qoldirishgan. Buning yorqin misoli sifatida baron Kaulbars boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi hamda muvaffaqiyatsiz yakunlangan Forsayt missiyasi keltiriladi. 1870 yilda Sharqiy Turkiston hukmdori Yoqubbek bilan siyosiy muzokaralar o’tkazish uchun jo’natilgan diplomat Forsayt rahbarligidagi missiyaga hali bironta yevropalik diplomatlar bormagan joyga borish vazifasi yuklatiladi. Ularga og’ir yo’l sharoitlarini hisobga olmasdan o’tish vaqti soati ham aniq belgilab beriladi. Bundan tashqari, 10 kishidan iborat missiyaga, ulardan uch barobar ko’p xizmatchilar bilan birga 17 ming rupiygina mablag’ ajratiladi. Ular Yoqubbek bilan uchrasha olmay qaytib ketishiga to’g’ri keladi. H.Vamberi bu missiyaga qarshi ravishda baron Kaulbars boshchiligidagi rus ekspeditsiyasini misol qilib keltiradi hamda batafsil ularning yutuqlari haqida yozadi. Savdo shartnomasining muvaffaqiyatli tuzilishi bilan birga Yoqubbek bilan do’stona munosabatlar o’rnatilishini ta’minladi³.

Toshkentdan Qashg’arga yuborilgan baron A. K. Kaulbars boshchiligidagi ekspeditsiyaning vazifalari haqida “Turkestanskije vedomosti” gazetasida qator xabarlar berib borilgan⁴. Mazkur ekspeditsiyaning asosiy vazifasi sifatida Rossiya imperatoridan Qashg’ar hukmdori Yoqubbekka muhim topshiriqlarni yetkazish ko’rsatilgan. Delegatsiya tarkibiga ofitserlar va mutaxassislar, shu jumladan

¹ Хитой чегарасидаги воқеалар ҳақидаги сўнги хабарлар ва чегарадош Ўрта Осиё ерларидаги ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар // Туркестанские ведомости. – 1879. – № 31.

² Биржевые ведомости. – 1872. – № 284.

³ Биржевые ведомости. – 1872. – № 284.

⁴ Туркестанские ведомости. – 1871. – № 12; 1872. – № 16, № 20, № 22, № 25, № 27, № 48.



Rossiya sanoati va savdosiga ko'maklashish jamiyati vakili ham kirdi. Ular Qashg'ardagi savdo va ishlab chiqarish imkoniyatlari holati to'g'risida batafsil ma'lumot to'plashni ham maqsad qilgan bo'lib, bu Rossiya va mintaqa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam berishi kerak edi. Delegatsiya, shuningdek, Qashg'ar va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi siyosiy va diplomatik munosabatlarni mustahkamlash uchun Yoqubbek bilan muzokaralar olib borish bo'yicha ko'rsatma oldi. Gubernatorga yo'llagan maktubida Yoqubbek Rossiya bilan hamkorlikni davom ettirish va do'stona munosabatlarni rivojlantirishga tayyorligini bildirdi.

Herman Vamberining "Sharqiy Turkistonda ruslarning siyosiy yutuqlari" nomli maqolasida Yoqubbekning Buyuk Britaniya bilan emas, balki Rossiya bilan ittifoq tanlashining sabablari batafsil yoritilgan. Muallif buni britaniyaliklarning xatolari, uzoqni ko'ra olmaslik siyosati, shuningdek, ruslarning diplomatik vositalardan, jumladan, do'stona munosabat va ishonchni namoyon eta olish qobiliyati bilan bog'laydi¹. Bunday ittifoqlardan Rossiyaga foyda keltirishiga katta e'tibor qaratiladi. O'rta Osiyoda barqarorlikni ta'minlash, Rossiya hududlari orqali savdo yo'llarini mustahkamlash va temir, shisha va chinni kabi rus tovarlari eksportini ko'paytirish masalalari yoritiladi. Shunday qilib, Herman Vamberining maqolasida nafaqat rus diplomatiyasining muvaffaqiyatlari yoritilgan, balki Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini samarali amalga oshira olmagani ham tanqid qilingan².

Baron Kaulbars boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi tashrifidan so'ng Toshkentga Yoqubbekning vakili Yoqub qushbegi Mirzo Mahiddin Maxsum imzolangan shartnomani olib keladi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman uni qabul qilish marosimida bu shartnomaning afzalliklariga alohida e'tibor qaratgan holda bu xavfsizlik hamda savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi³.

Yoqubbek haqida "Turkestanskije vedomosti" gazetasida ham qator maqolalar chop etiladi. Jumladan, 1872 yilda mazkur gazetada I. Ibragimovning "Qashg'ardagi Qo'qon elchixonasi"⁴ nomli maqolasi nashr qilinadi. Unda Qo'qonning mahalliy amaldori Yoqubbek bilan uchrashuvdan olingan taassurotlar va safar tafsilotlari bayon yetilgan. Maqolada uning Qashg'arga tashrifi, u yerda xon oilasi nomidan sovg'alar va salomlar yetkazgani haqida hikoya qilinadi. Uning turar joyi va xulq-atvoriga, jumladan masjidga borishi va mahalliy aholi bilan muloqotiga alohida e'tibor qaratilgan. Tavsifda Yoqubbekning yuqori lavozimda bo'lishiga qaramay, an'anaviy urf-odatlariga rioya qilgani va mahalliy

¹ Биржевые ведомости. – 1872. – № 284.

² O'sha manba.

³ Туркестанские ведомости. – 1872. – 28-сон.

⁴ Ибрагимов И. Қашғардаги Қўқон элчихонаси // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 17.



urf-odatlariga hurmat ko'rsatgani, hatto atrof-muhit talablariga javob berish uchun o'z harakatlarini to'xtatgani haqida qiziqarli ma'lumot keltirilgan. Yoqubbekning xorijiy mehmonlar bilan munosabatlari va ularga munosabati haqida ham so'z yuritiladi. Qo'qonlik mehmon ta'kidlashicha, Yoqubbek rasmiy vaziyatga qaramay, juda do'stona munosabatda bo'lgan va mehmonlar uchun qulay sharoit yaratishga harakat qilgan. Shuningdek, Yoqubbek amal qilgan o'ziga xos an'ana va urf-odatlar, ularning mehmonlar tomonidan qanday qabul qilingani ham bayon yetilgan. Maqola so'ngida Yoqubbekning tashrifdan so'ng sovg'alar va minnatdorchilik maktublarini yo'llagani xorijiy hamkorlarga nisbatan hurmat va e'tiboridan dalolat berishi qayd etilgan.

"Turkestanские ведомости" gazetasida 1872 yilgi sonlaridan birida¹ "Russkiy invalid" jurnalida chop etilgan maqola ko'chirib bosiladi va unda lord Maydo boshqaruvi ostida Sharqiy Turkistonda Buyuk Britaniya faoliyatining keskin kuchayganini, bu amir Sheralixon hokimiyat o'rnatgandan keyin Buyuk Britaniyaning Afg'onistondagi harakatlarini yeslatishini xabar qiladi. Sharqiy Hindiston hukumati Yoqubbekning armiyasini tashkil yetish va qurollantirishda yordam berish uchun Qashg'arga 60 nafargacha mutaxassis va texniklarni yuborgan, shuningdek mustahkamlash uchun 3000 rubl ajratgan. Yoqubbek, o'z navbatida, Qashg'ardan shimolda ikkita istehkom qurishni boshlagan va o'z harbiy kuchlarini Turfonda to'plashni davom ettirmoqda, u yerda xitoyliklar hokimiyatining tiklanishini kuzatmoqda. Yoqubbekning o'zi hozircha Qashg'arga ko'chib o'tmagan, Aksuda yashashni davom ettirmoqda, uning huzuriga bormoqchi bo'lgan karvonlar esa shahardan chiqib ketishga ruxsat olgan².

1873 yilda "Turkestanские ведомости" gazetasi bir necha sonlarida Yoqubbekning Sankt-Peterburgdagi elchisi haqida ma'lumotlar berib boradi³. Xabarlar diqqat markazida Qashg'ar hukmdori Muhammad Yoqubbekdan Rossiya imperiyasiga sadoqat va do'stona munosabatlar o'rnatishga intilish ifodalangan maktubni olib kelgan Qashg'arlik elchi Mulla Tarap Xo'ja turadi. Savdo va iqtisodiy hamkorlik, shuningdek, davlatlar o'rtasida tinchlik va o'zaro manfaatli munosabatlarni saqlashga qaratilgan diplomatik aloqalarning ahamiyati ta'kidlangan. Maktub shaxsan Rossiya imperatoriga topshirilgani Mulla Tarap Xo'janing yuqori maqomini ko'rsatgan. Mulla Tarap Xo'ja aqlli va odobli, qat'iy diniy ko'rsatmalarga rioya qiladigan, kamtarona kiyinadigan, Yoqubbek sovg'a qilgan kiyimlarni afzal ko'radigan odam sifatida tasvirlangan. Uning arab, fors va turkiy tillarni bilishi uni o'z davrining bilimdon kishisi sifatida ajratib turadi⁴.

¹ Туркестанские ведомости. – 1872. – № 21.

² O'sha manba.

³ Туркестанские ведомости. – 1873. – № 34, № 35, № 37, № 41, № 42.

⁴ Туркестанские ведомости. – 1873. – № 34, № 35, № 37, № 41, № 42.



1879 yilda “Golos” gazetasida Bulger qalamiga mansub “Qashg‘ar amiri otaliq g‘ozi va badavlat Yoqubbek hayoti” (“Life of Yakub-Bek, Ata-Lik-Gazi and Badaulet, Emir of Kashgar”) nomli kitobi chop etilganligi va u Peterburgga yetib kelganligi haqida xabar qilinadi. Kitob O‘rta Osiyodagi geosiyosiy vaziyat va tarixiy shaxslarni chuqur o‘rganishga qaratilgan¹. Ushbu asarda Kashg‘ar hukmdori bo‘lgan Yoqubbek va uning yetakchiligidagi davlatni o‘z ichiga olgan tajribani batafsil yoritadi. Bulger o‘z asarida Yoqubbekni Markaziy Osiyoda o‘z mustaqil davlatini barpo etgan va ko‘plab dushmanlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashgan harbiy sifatida ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, Yoqubbek imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan, juda talabchan va mard harbiy rahbar edi.

Asarda Bulger Kashg‘ar va uning atrofidagi tarixiy jarayonlarni yoritib, Yoqubbekning Kashg‘arni boshqarishdagi ichki va tashqi siyosatini, xususan, Xitoyga qarshi olib borgan kurashlarini tavsiflaydi. Xitoyning Kashg‘arni qo‘llab-quvvatlashi, Rossiya bilan bo‘lgan munosabatlari va Angliya bilan savdo hamda diplomatik aloqalar yuzasidan Bulgerning tahlillari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlanadi. Yoqubbekning hukmronligi va oxir-oqibat Xitoyga bo‘ysunishining katta geosiyosiy oqibatlari, ayniqsa, G‘ulja masalasi orqali Xitoy, Rossiya va Angliyaning o‘rtasidagi yirik raqobat ko‘rsatilgan².

1879 yilda Toshkentda P.P.Matveev tomonidan chop etilgan “G‘arbiy Xitoyga sayohat” asarida 2 nafar tarjimon, 20 nafar kazak, 2 nafar o‘qchi askar bilan 32 ta yuklar ortilgan ot bilan 28 fevralda yo‘lga chiqqanini qayd etadi. 5 martda Jinxo shahriga kelganda shahar boshlig‘i va yana bir amaldor kutib oladi, ularni qal’a ichiga joylashtirashdi. Safardan asosiy maqsad G‘arbiy Xitoy yerlaridagi vaziyat haqida harbiy-siyosiy ma’lumotlarni to‘plab kelish bo‘lgan³. Sayohatida u tarjimonlar, oziq-ovqat va yem-xashak yetishmasligi sababli sayohatni tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Asarda asosiy e’tibor borish qiyin hududlarga sayohat qilish tafsilotlari, Xitoy ijtimoiy va harbiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va mahalliy Xitoy hukumati bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan.

Sayohatnomada dovonlar bo‘ylab sayohat tafsilotlari, Xitoy rasmiylari bilan uchrashuvlar, qo‘shinlarning joylashuvi, hududning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari o‘rganilgan. Muallif Xitoy rasmiylari bilan aloqalari, qarorgohlarda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlari, qo‘shinlar tavsifi va aholining yashash sharoiti haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Sayohatnomada mintaqadaagi murakkab siyosiy vaziyatda diplomatik aloqalar o‘rnatish muhimligi ham tilga olinadi va mahalliy Xitoy hukumati xatti-harakatlarining nozik jihatlari haqida mulohaza qilinadi,

¹ По поводу сочинения о Якубхане // Голос. – 1879. – № 54.

² O‘sha manba.

³ МаТуркестанские ведомостиев П.П. Поездка в Западный Китай // Туркестанский сборник. – № Том 340. – С.140-195.



Szin-szyan-szyun bilan oxirgi marotaba uchrashuvida bo'lgan voqealarni tasvirlaydi¹.

Artilleriya shtab-kapitani Reyntalning 1868 yil kuzida Qashg'arga qilgan sayohati haqidagi maqolada mazkur safarning asosiy maqsadi Rossiya imperiyasi va Yoqubbek davlati o'rtasidagi do'stona munosabatlar o'rnatish bo'lganligi tasvirlangan. Jumladan, Rossiya ularni bosib olish niyatida emas, balki uzoq muddatli shartnoma tuzish va savdo hamkorligini mustahkamlash niyatida ekanligi alohida ta'kidlanadi².

Muallif Qashg'ar yoki Sharqiy Turkistonni Rossiyani qiziqtiradigan baland tog' tizmalari, jumladan, Tyan-Shan bilan chegaralangan muhim strategik va siyosiy mintaqa sifatida ta'riflaydi. Iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda tabiiy landshaftlarning xususiyatlari, jumladan Tarim daryosi va turli dovonlar asosiy o'rin tutadi.

Asosiy e'tibor Qashg'ardagi notinch siyosiy vaziyatga qaratilgan. 1864 yildagi qo'zg'olon natijasida Xitoyning ta'siri tushib ketganidan so'ng, Yoqubbek mintaqada hokimiyatni qo'lga oldi, bu esa bu tashrifni yangi tuzum bilan muloqot o'rnatish uchun ayniqsa dolzarb qildi.

Maqolada Qashg'ar va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy aloqalarga doir masalalar ko'rib chiqiladi, asta-sekin Rossiyaning ta'siri kuchayishi, ayniqsa savdo xavfsizligi va munosabatlar ustidan nazoratni ta'minlash, jumladan diplomatik vakolatxonalar va Turkiston bilan chegarada xavfsizlikni ta'minlash masalalarida bu holatni kuzatish mumkin.

Qashg'arda mafkuraviy jihatga urg'u beriladi, mahalliy hokimiyatning Rossiya elchisi Reyptalni hayratda qoldirish istagi mavjudligi ta'kidlanadi. Qashg'ar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi.

Yoqubbek rus elchisi bilan suhbatda o'zini Rossiya imperiyasi bilan tinchlikni saqlashga urinayotgan, biroq ayni paytda sharoitga qarab harakat qilayotgan, qo'shni xalqlar va turli etnik guruhlar, jumladan, qo'qonliklar va xitoylar bilan yaxshi munosabatda bo'lish niyatida bo'lgan ayyor hukmdor sifatida tasvirlanadi.

Reyntal mahalliy hokimiyat organlari bilan muloqot qilish jarayonida mahalliy amaldorlar va savdogarlar ruslarning asl niyatlari haqida bilishga harakat qilishadi, ularning Qashg'arni qo'lga kiritish maqsadi mavjudligini bilishga uringan.

Reyntal mintaqadagi turli etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatuvi natijasida ko'plab mahalliy aholi, masalan, qashg'arliklar Yoqubbek hukmronligidan, ayniqsa, uning qo'qonliklarga qo'shinda muhim lavozimlar berilganidan to'liq mamnun emas, degan xulosaga keladi. Yoqubbek

¹ O'sha manba.

² Поездка в Кашгарию // Туркестанский сборник. – № 23. – С.71-89.



qo'shinlarining o'zlari xitoy askarlari va mahalliy qashg'arliklardan iborat bo'lib, qo'shinlar tez-tez mashg'ulotlar o'tkazib turadi¹.

“Novoe vremya” gazetasida chop etilgan «G'arbiy Xitoy chegarasidan» nomli maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Xitoydagi murakkab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yoritilgan. Mahalliy qo'shinlarni va savdoni boshqarish muammosi ma'muriy tartibsizliklar sharoitida ko'rib chiqiladi. Xitoylik askarlarga ish haqini to'lashning kechikishi, dezertirlikka, qurolli kuchlarning zaiflashishiga va banditizmning tarqalishiga olib kelgani haqida ma'lumotlar keltirilgan².

Asosiy e'tibor G'uljalik yirik savdogar Vali-Oxun Yo'ldoshev tomonidan kreditga yetkazib berilgan oziq-ovqat uchun Xitoy hukumati bir necha yillardan buyon (1882 yildan buyon) unga 400 ming lang kumush qarz ekanligiga qaratiladi. Muzokaralardagi qiyinchiliklar va sezilarli darajada kamroq kompensatsiya (170 ming) taklifi mahalliy amaldorlarning korrupsiyasidan dalolat beradi. Shu bilan birga, maqolada G'arbiy Xitoy qo'shinlari ikki qismdan iboratligi haqida ma'lumot beriladi. Biri mahalliy aholi – sbinlar va qolmiqlardan iborat bo'lib, ular militsiya vazifasini bajargan va juda yomon qurollangan, hatto o'q-yoy bilan qurollangan, ularga maxsus ta'lim berilmagan, maoshlari ham yillab to'lanmagan. Shunga qaramasdan ular o'z vazifasini bajarishga harakat qilganligi qayd etiladi. Qo'shinlarning ikkinchi qismi yollanma (yun) bo'lib, ular xitoyliklar va dunganlardan tashkil topgan. Dastlab yollanma askarlikka taypinlarga va dunganlarga qarshi kurashish uchun turli kallakesarlar jalb qilingan. Ili o'lkasiga kelgan Xitoy armiyasi ham dizertirlik va kasalliklar natijasida kamayib, zaif holda bo'lgan. Armiya safiga ovchilar, turli xizmatchilar vaqtincha jalb qilinib, armiyani tekshirishga kelgan harbiy boshliqlarga qo'shin soni ko'pligi ko'rsatilgandan keyin yana tarqatib yuborilgan, chunki ular yollanma askarlarga ajratilgan mablag'larni o'zlashtirib yuborishgan³.

“Novosti” gazetasida chop etilgan maqolada 1886-yil 6-apreldagi Xitoydagi siyosiy voqealar xronikasi beriladi. Xitoy harbiy gubernatori Szyan-szyun-Szinning o'zgarishi, mojarolar va ziddiyatlar asosiy masala sifatida ko'tarilgan. Szyan-szyun-Szin 300 askar bilan Suydundan Pekinga yo'l olganligi, avvalgi Szyan-szyunning 10-12 nafar yaqin qo'l ostidagi amaldorlar hibsga olinib, ular davlat xazinasini o'g'irlashda ayblangan. Maqolada jamoatchilik kayfiyati tasvirlanib, mahalliy aholining ba'zi qismlari ayblovlarni bo'rttirilgan deb hisoblab, uning chetlatilganidan afsuslanishganligi bildiriladi⁴.

Maqolada Rossiya 1871 yilda egallagan Ili o'lkasida armiya va ma'muriyatni saqlashga ketgan xarajatlari va Szinning shunga o'xshash xarajatlari bilan

¹ O'sha manba.

² А.П. С западно китайской границы // Новое время. – 1885. – № 207.

³ O'sha manba.

⁴ Н. С западно китайской границы // Новости. – 1886. – № 93.



taqqoslanadi hada katta moliyaviy xarajatlar talab qilinishi ta'kidlangan. Jumladan, Szin 1880 yildan boshlab 5-6 yil mobaynida ma'muriyat va 20-30 ming qo'shinga 3 million lan kumush (6 million rub.) sarflangan bo'lsa, Rossiya G'uljaga 1880 yilda Xitoy bilan to'qnashuvlardan qo'rqib, qo'shin jo'natib, unga bir yilda 7 million rub. sarflanganligi, bundan tashqari, Amurda qo'shicha qurollanish uchun yana mablag' sarflanganligi va jami taxminan 9 million rub. ketganligi qiyoslanadi. Muallif Xitoyga 1881 yilda Ili o'lkasi qaytarib berilganda sarflangan xarajatlar faqat qisman to'langanligiga alohida urg'u beriladi.

"Turkestanские ведомости" gazetasida 1881 yilda G'ulja o'lkasini xitoylarga berish masalasiga doir maqolalar chop etib boriladi¹. Maqolada Rossiya imperiyasi va Xitoy o'rtasida chegara hududlari yerlarni berish va ularni boshqarish bilan bog'liq muammolarga hamda bu jarayonning iqtisodiy oqibatlariga qaratiladi. Hududning bir qismini Xitoyga o'tkazish ehtimoli va mahalliy aholi, xususan, bu yerlarda tarixan yashab kelgan va o'zgarishlardan qattiq ta'sirlangan ko'chmanchilar manfaatlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Rossiya xazinasini uchun ehtimoliy yo'qotishlar va hududiy chegaralarga rioya qilish hamda resurslarni boshqarish orqali zararni kamaytirish usullari muhokama qilinadi. Rossiya va Xitoy yerlarini bog'laydigan hudud va aloqa yo'llarini strategik boshqarish zarurligi uqtiriladi².

Gazetaning boshqa bir sonida G'ulja haqidagi rus-xitoy shartnomasining ratifikatsiya qilinishi, ushbu bitim shartlari va oqibatlari batafsil bayon etilgan. 12-avgust kuni Lvovda yuqori martabali xitoylik va rossiyalik diplomatlar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi, unda shartnoma tafsilotlari taqdim etildi. 20 moddadan iborat bo'lib, shartnomada savdo va hududlar bo'yicha kelishuvlar ko'rsatilgan. Xitoy Rossiyaga 9 million metall rubl to'lashga va Rossiyaga G'arbiy Xitoy hududlarida bojsiz savdo qilish huquqini berishga rozi bo'ldi. Rossiya, o'z navbatida, Xorgos va Ili daryolari oralig'idagi hududni Rossiya boshqaruvi ostida qolishni istagan mahalliy aholi uchun saqlab qolgan holda, G'ulja hududining katta qismini qaytarib berishga rozi bo'ldi³.

Jung'oriyaning siyosiy tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Unda aytilishicha, xitoyliklar Ili yoki Tien -shan-be-lu nomi bilan ma'lum bo'lgan Jung'oriya, Xitoyga bo'ysungan paytdan boshlab, 18-asr oxirida harbiy mustamlaka tashkil etgan. Butun mintaqani boshqarish Szin-szyan qo'lida (G'uljada) to'plangan. Unga Ili, Tarbag'atay va Kur-qora-usu viloyatlarining ambanilari (harbiy gubernatorlar) bo'ysungan. Bundan tashqari, ma'muriy jihatdan Gan-su provinsiyasiga qarashli bo'lgan Urumchi va Barkul okruglarida joylashgan barcha qo'shinlar, shuningdek, Xitoy Turkistoni garnizonlari ham

¹ Туркестанские ведомости. – 1881. – № 5.

² Туркестанские ведомости. – 1881. – № 5.

³ Туркестанские ведомости. – 1881. – № 37.



unga bo'ysunadi. Gubernatorlar manjur qo'shinlarini tartibga solish bo'yicha ishlab chiqilgan tuzuklar asosida mintaqalarni boshqargan. Shuningdek, Rossiya chegarasidagi qo'riqchilar ham ularga bo'ysunadi¹.

Ko'chmanchi qabilalar mo'g'ullar kabi o'zlarining alohida boshqaruviga ega bo'lib, Ili Szin-szyani va ambanlar qo'mondonligi ostida joylashgan. Ular o'z navbatida chulxaylarga (seymlarga) bo'linadi.

Jinoiy ishlar Olti palatalar kodeksi (Xitoy jinoyat qonunlari) asosida, fuqarolik ishlari Xitoy aholisi uchun - odat va amaldorlarning qarorlariga ko'ra, musulmonlar uchun - shariat bo'yicha va ko'chmanchi aholi uchun - Tashqi aloqalar palatasi kodeksiga ko'ra olib borilgan. Ruslarning ishlarini G'ulja va Chuguchakdagi konsullar hal qilgan. Ammo, qo'zg'olon tufayli, konsullarning biri Verniy shahrida, ikkinchisi Omskda yashagan.

Jung'oriyaning yuqorida ko'rsatilgan siyosiy tuzilmasi 1863 yilda Urumchi va Gansu okrugiga qarashli boshqa yerlarda boshlangan musulmonlar qo'zg'oloni tufayli vaqtincha buzildi, u yerdan Ili viloyati va Turkistonga tarqaldi. Ikki yil ichida Gan-suning g'arbiy qismidagi butun mintaqa Xitoy hukumati hokimiyatidan qo'zg'olonchilar hokimiyatiga o'tdi. 1865 yildan keyin qo'zg'olonchilarning kuchlari zaiflashib borgan, ularning qo'lida bo'lgan yerlarning aksariyati manjurlarga qaytarilgan, ammo isyonchilar Urumchi va G'ulja okurglarini nazorat qilishda davom etgan².

Xitoy hukumati Jung'oriya uchun kurashishiga muhim omil ta'sir ko'rsatgan, Jung'oriyaga egalik qilish orqali Mo'g'ulistonni O'rta Osiyoning ko'chmanchi xalqlaridan ajratib qo'yish va shu orqali dushmanni zaiflashtirishni maqsad qilgan edi. Syan-Lun hukmronligi davrida Jung'oriya to'liq bosib olingan va uning aholisi yo'q qilingan, uning o'rniga hukumat Gan-su provinsiyasini Ili bilan bog'laydigan yo'lda Xitoy, Manjuriya va Turkistondan aholini joylashtiradi.

"Pekin" gazetasining 1886 yil iyun sonida Li Szin Tanning Ili o'lkasi bo'yicha ma'ruzasi chop etilgan³. Uning yozishicha, Szindan qolgan qo'shindan (15 ming askar) juda kam qismi xizmatga yaroqli edi. Aksariyati bemorlar, qariyalar va yollangan turli kasbdagi kishilardan iborat edi. Shuning uchun Li Szin Tan xizmat qilishga yaroqsiz bo'lgan askarlarni tarqatib yuboradi, qolganlarini esa Ili o'lkasiga joylashtiradi. 1886 yilda Ildagi Xitoy qo'shinlari soni 4500 kishidan iborat bo'lib, ulardan 2000 nafari Suydun va uning atrofida, 1000 nafari Chinchagozida, 700 nafari Rossiya hududi bilan chegaradosh bo'lgan Xorgosda, qolgan 800 nafari G'uljada va boshqa joylarda joylashtirilgan edi⁴.

¹ Чжунгария // Туркестанский сборник. Том 30. – С.218-221.

² Чжунгария // Туркестанский сборник. Том 30. – С. 218-221.

³ А.П. С западно китайской границы // Новости. – 1886. – № 261.

⁴ O'sha manba.



“Turkestanские ведомости” gazetasida nashr etilgan G‘arbiy Xitoydagi savdoga bag‘ishlangan maqolani “Golos” gazetasi ko‘chirib bosadi, unda mahalliy aholining Xitoy ma‘muriyatidan noroziligi qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘ldi. Maqolada Qashg‘arning rahbari Yoqubbek jasadi tahqirlanishi bilan bog‘liq g‘azab tasvirlangan. Bu voqea, guvohlarning so‘zlariga ko‘ra, Xitoyga qarshi qator noroziliklarni, jumladan, Xo‘tandagi qo‘zg‘olonni keltirib chiqargan¹.

Maqolada Xitoy qo‘shinlarining mintaqaga kiritilishi haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Qashg‘ardagi mudofaa tadbirlari va harbiy qismlar soniga alohida e‘tibor beriladi. Jumladan, Yettishaharda 4370 nafar piyoda askar va 1000 nafar otliq askar bo‘lib, ular turli miltiqlar – nayzali va nayzasiz miltiqlar bilan qurollangan va qurollar soni 4000 ta edi. Otliq askarlar esa faqat o‘q-kamon va qilich bilan qurollangan edi².

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, XIX asr oxirida davriy matbuot Sharqiy Turkistondagi siyosiy voqealarni keng yoritib, turli ma‘ruzalar va maqolalar orqali mintaqaga ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy jihatlariga diqqat qaratgan. Jumladan, G‘arbiy Xitoyda bo‘lib o‘tgan dunganlar qo‘zg‘oloni mazmunli yoritilgan, sabablari va ta’siri aniq bayon etilgan. Qo‘zg‘olon yuqori uyushqoqlikka qaramay, ichki nizolar sababli uzoq muddatli barqarorlikka erishmagan. Matbuotda Rossiyaning manfaatlari himoya qilingan, mazkur ma‘lumotlardan Rossiya mintaqada savdo yo‘llarini kengaytirish va o‘z ta’sirini mustahkamlashga qaratilgan siyosat yuritganligini ko‘rish mumkin. Xususan, G‘ulja hududini saqlab qolish va Qashg‘ar bilan savdo aloqalarini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, matbuotda e‘lon qilingan materiallardan Rossiya va Buyuk Britaniya Sharqiy Turkistonda ta’sir o‘tkazish uchun kurashganligini kuzatish mumkin. Rossiya diplomatiyasi samarali tashkil etilganligi, britaniyaliklarning esa xatolarga yo‘l qo‘yganligiga alohida urg‘u berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. А.К.Гейнс. О восстании мусульманского населения или дунганей в Западном Китае // Туркестанский сборник. – № 5. – С. 63-86.
2. А.П. С западно китайской границы // Новое время. – 1885. – № 207.
3. А.П. С западно китайской границы // Новости. – 1886. – № 261.
4. Биржевые ведомости. – 1872. – № 284.
5. Ибрагимов И. Қашғардаги Қўқон элчихонаси // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 17.
6. Кулжа масаласи бўйича // ТВ. – 1879. – № 23.

¹ Торговля на западно китайской границе // Голос. – 1880. – № 220.

² O‘sha manba.

7. Матвеев П.П. Поездка в Западный Китай // Туркестанский сборник. – № 340. – С.140-195.
8. Н. С западно китайской границы // Новости. – 1886. – № 93.
9. По поводу сочинения о Якубхане // Голос. – 1879. - № 54.
10. Поездка в Кашгарию // Туркестанский сборник. – № 23. – С.71-89.
11. С.-Петербург. 12 февраля 1872 г. // Биржевые ведомости. – 1872. – № 43.
12. Торговля на западно китайской границе // Голос. – 1880. – № 220.
13. Туркестанские ведомости. – 1871. – № 12; 1872. – № 16, № 20, № 22, № 25, № 27, № 48.
14. Туркестанские ведомости. – 1872. – № 28.
15. Туркестанские ведомости. – 1872. – № 21.
16. Туркестанские ведомости. – 1873 – № 34, № 35, № 37, № 41, № 42.
17. Туркестанские ведомости. – 1873 – № 34, № 35, № 37, № 41, № 42.
18. Туркестанские ведомости. – 1881. – № 37.
19. Туркестанские ведомости. – 1881. – № 5.
20. Хитой чегарасидаги вокеалар ҳақидаги сўнги хабарлар ва чегарадош Ўрта Осиё ерларидаги ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар // ТВ. – 1879. – № 31.
21. Чжунгария // Туркестанский сборник. – № 30. – С.218-221.

G'ARB VA SHARQ MUALLIFLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI HAQIDA

LOCHIN ELIMOV

O'qituvchi, SamDU

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda yuz bergan siyosiy voqealar G'arb va Sharq tarixchilari keltirgan ma'lumotlarga asoslanib tahlil qilinadi. Tadqiqotda, avvalo, Chig'atoy ulusining parchalanishi, mamlakatdagi beqaror siyosiy vaziyat, Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi va uning davlatni barpo etish yo'lidagi faoliyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur shaxsiga oid Yevropa mualliflari tomonidan yozilgan asarlar birlamchi sharqiy manbalar bilan solishtirilib, ularda voqealarning qay darajada haqqoniy aks etgani tahlil qilinadi.

Amir Temur tarixi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon tarixida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ham Sohibqiron faoliyati tarixshunoslikda qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, Yevropa tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlarning